

MULOQOT MADANIYATINING TUZILISHI VA SHAXSLARARO IJTIMOILASHUVIDAGI TA'SIRI VA ROLI

Aymatov A.Q.

Falsafa fanlari doktori(Dsc)

Samarqand davlat universiteti

E-mail: aminjonaymatov@mail.com

Tel : +998982739448

Turayeva Dildora Shuhratovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

E-mail: dildoraturayeva865@mail.com

Tel : +998915426808

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received:02.11.2025

Revised: 03.11.2025

Accepted:04.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

muloqot, madaniyat, ta'rix, muloqot san'ati, axloq, ma'naviyat, ijtimoiy-falsafiy, etnoestetik, jamiyat

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada, muloqot madaniyatining tuzilishi va shaxslararo ijtimoiylashuvidagi ta'siri va roli, uning rivojlanish tarixi va bosqichlari yoritilgan.

Muloqot - odamlar o'rtasidagi hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayonidir. Muloqot madaniyatida bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular orasidagi muloqotni yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning o'zaro axborot olishlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladi.

Kirish

Huquqiy demokratik davlat, fuqorolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan O'zbekiston sharoitida haqiqatni bilishga barcha haqli bo'lgan muhit qaror topib, muloqot madaniyatida monolog o'rnini dialog, yakkahokimlik fikrlari o'rnini fikrlar xilma-xilligi egallamoqda. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizim negizini ishontirish orqali tashkil etuvchi demokratik muloqot madaniyati bilan almashmoqda.

Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli yangilanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dolzarb masalalar va ularning yechimiga doir vazifalarni to‘g‘ri anglash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Zero, yangicha demokratik prinsiplarga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish, kelajak bunyodkori bo‘la oladigan barkamol shaxsni voyaga yetkazish, jamiyat tayanchi hisoblanadigan har bir tarkibiy elementning, shuningdek har bir jamiyat a‘zosining yangicha tafakkurga, yangicha muloqotga ega bo‘lishini talab etmoqda.

Muloqot madaniyatidagi o‘zaro munosabatlar haqida fikr yuritar ekanmiz, ular muayyan ma‘naviy-axloqiy sistemadan, muayyan tuzilishdan iborat ekanligi kuzatiladi. Muloqot madaniyati tushunchasi kishilarning hayot tarzini aks ettiradi. Inson hayoti o‘zgarmasdan bir joyda qotib qolmaydi, u doimo o‘zgarishda, taraqqiyotda bo‘ladi. Shunday ekan, muloqot madaniyatiga insoniy taraqqiyotni ifodalaydigan majmua tarzida qarash mumkin.

Insoniy taraqqiyotning bosh maqsadi inson imkoniyatlarini kengaytirib, munosib turmush – tarzini tashkil etishdan iboratdir. “O‘zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo‘st xalqidir⁶⁵”. Darhaqiqat, xushmuomala, shirinso‘z, bag‘rikeng va mehnatsevar xalqimiz yurtimizning chiakam boyligi hisoblanadi. Shuni alohida aytib o‘tish joizki, iqtisodiyot, siyosat sohasidagi barcha islohotlarimizning asosiy maqsadi - bu insondir. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng muloqot madaniyati tushunchasini ma‘naviy qadriyatlar, shuningdek, yangicha qarashlar asosida ilmiy tadqiq etishga, uni jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan ta‘sirini xolisona baholashga ehtiyoj tug‘ildi.

Mamlakatimizda o‘zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin hayotimizda bir qancha ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mamlakatimizdagi davlat hujjatlari ona tilida rasmiylashtirilmoqda, yig‘ilishlardagi ma‘ruzalar asosan o‘zbek tilida olib borilmoqda. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa‘y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdur⁶⁶”. Bugungi kunda islohotchi bo‘lib yo‘lga chiqadigan, uzoqni o‘ylab fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha ta‘limning barcha bo‘g‘inlari chuqur izchil isloh qilinmoqda.

Yoshlik inson hayotidagi eng qiyin davr sanaladi. Yoshlarni nafaqat jismoniy baquvvat, balki ma‘naviy boy, yangi davr talablariga javob bera oladigan, muloqot jarayonida erkin

⁶⁵ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O‘zbekiston, 1997. –B. 252.

⁶⁶ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. Uchinchi nashri. – T.: O‘zbekiston, 2022. – B.31-32.

fikr yurita oladigan qilib tarbiyalash hozirgi kundagi muhim vazifalardan biridir. Nafaqat yoshlar, butun jamiyatimiz a'zolarining har biriga bilimi, saviyasini, muloqot madaniyatini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak.

Muloqot – odamlar o'rtasidagi hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayonidir. Muloqot madaniyatida bilimlar ziddiyat ichida tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, ular orasidagi muloqotni yangitdan bir tizimga tushirish, tomonlarning o'zaro axborot olishlarini yengillashtirish uchun xizmat qiladi.

Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil insonni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot madaniyati fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Qadimdan bizning ota-bobolarimiz muloqot motivatsiyasi, qonun-qoidalari va o'gitlarini yaxshi bilganlar. Ular xalqni xushmuomalalikka, mehr-oqibatga, odob-axloqqa chaqirganlar. Bizning Sharqona motivatsiyamizda xalqimizning asrlar osha saqlanib kelayotgan urf-odatlar, an'analari, axloq me'yorlari mujassam bo'lib, hadislar, maqollar, hikmatli so'zlar pand-nasihatlar, odob-axloq durdonalari shakllaridan xalqni ma'naviy yetuklikka boshlab keladi. Hadislarimizning birida "Hamma ishlaringizga to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin"⁶⁷ - deyilib, barcha insonlar samimiylikka, xushxulq bo'lishga chorlangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shirinsozlik va go'zal nutq hech qayerda sotilmaydi. Bunga erishishning birgina yo'li, har doim shirin so'zlashni mashq qilishdir. Bu esa odatda, ko'p kitob o'qish va madaniyatli odamlar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi. Xushmuomalalik – muloqot madaniyatining ko'zgusidir. "Xushmuomalalik qalbning shunday bir fazilatidirki, unda buzilgan kichkina omborcha e'tiborga olinib, diqqat qaratilmaydi, balki omborcha tashqarisidagi hovli gullariga e'tibor beriladi"⁶⁸. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot madaniyati insonning kimligini ko'rsatuvchi yuzi hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, madaniyat ham muloqot orqali mavjuddir. Ayni paytda, madaniyatli inson muloqot sohasining kengayishiga xizmat qiladi: kishilar o'rtasidagi to'g'ridan – to'g'ri, bevosita muloqot o'tmish avlodlarga mansub kishilar, shuningdek, muloqot bilan to'ldiriladi. Biz bobokalonlarimiz Farobiy, Beruniy, Ibn Sinoning falsafiy asarlari, Lutfiy va Navoiyning g'azallari, Qodiriy va Co'lponlarning romanlarini o'qib, ularning dunyoqarashi,

⁶⁷ Imom G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. T.: Movorounnahr, 2007. –B.144.

⁶⁸ Deyl Karnegi. Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish to'g'risida. -T.: Yoshlar, 2023. –B. 238.

fikrlash tarzi bilan oshno bo'lamiz, fikran so'zlashamiz⁶⁹. Ayrim hollarda muloqot madaniyati shaxs rivojlanishiga salbiy ta'sir qilib, unda zararli odatlarni keltirib chiqarsa, boshqa hollarda shaxsning kamoloti uchun xizmat qiladi.

Insonning tabiati shundayki, u atrofadagilar bilan muloqotda bo'lmasdan yashay olmaydi. Muloqot madaniyati inson aqli, zakovati va qo'li bilan yaratiladi, u asrlar osha sayqallanadi, mazmunan qimmatini yanada boyib boradi. Unda ajdodlarning mehnati, o'y-fikri, tasavvuri, umuminsoniy, milliy qadriyatlari mujassamlashadi. Muloqot madaniyatini komil insonning muhim sifatlaridan biri deyish mumkin. Muloqot madaniyati yetarlicha bo'lmagan insonlar jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishlari mushkul. U kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi o'zaro munosabatlarning muhim shaklidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, zamonaviy jamiyatda muloqot madaniyati – bu shaxsning qadriyat e'tiqodi va xulq-atvoriga aylangan, axloq va odob-axloq qoidalariga mos keladigan shaxsiy muhim dunyoqarash munosabatlarining birligidir. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, muloqot madaniyatini shakllantirish axloqiy tarbiya jarayonining bir qismi sifatida tushunilishi kerak, bu yerda xulq-atvor va muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga birinchi navbatda e'tibor beriladi, lekin ularning axloqiy mazmini ham muhim sanaladi. Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalardagi bir tirik jonzotdan ikkinchisiga yetkaziladigan axborotdir. Muloqotning mazmuniga barcha tirik mavjudotlarning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma'lumotlar kiradi. Biz muloqot madaniyati yordamida insonlarga axborot yetkazamiz.

Muloqot madaniyati kishining ichki dunyosi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilmlar sirasiga kiradi. O'tmishda muloqot madaniyati nozik va nazokatli ilm sifatida o'rganilgan. Bizga ma'lumki, "so'z" sarmazmun bo'lib, u ko'p narsalarga dalolat qiladi. Binobarin so'zni to'g'ri tushunish va to'g'ri ishlatish uning ma'nolarini iloji boricha mukammal bilish uchun kishidan farosat talab etiladi. Zero, ongi yuksak rivojlangan insonlarning muloqot madaniyati ham yuksak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.: Янги аср авлоди, 2018. -250 б.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Т.: O'qituvchi, 1992.

⁶⁹ Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent, 2006. - B. 24.

- =====
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom, T.: 1968. – B. 74.
 4. Abu Homid Muhammad G'azzoliy T.: O'zbekiston, 2020. - 88 b.
 5. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis, 4-kitob. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1997. –526 b.
 6. Abu Ali ibn Sino. Risolat at-tayr. Solomon va Ibsol. T.:, 1980. – 71 b.
 7. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Махкам таржимаси. Т.: Шарқ, 2001.

